

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI

SHOKIROV SARDOR INOTDULLO O‘G‘LI

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING
MOLIYAVIIY MANBALARI”**

5231300 -“Pensiya ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultet dekani

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

“ _____ ” _____ 2018 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri

_____ i.f.n. B.Mamatov

“ _____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi: 5231300 -“Pensiya ishi”
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Shokirov Sardor Inotdullo o‘g‘li

Ilmiy rahbar:

_____ dots.v.b. B.I.Nurmuxamedova

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

	betlar
KIRISH.....	3
1-BOB. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING TASHKILIIY-HUQUQIIY ASOSLARI VA MOLIYAVIIY MANBALARI.....	7
1.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi, shakllari va tashkiliy-huquqiy asoslari.	7
1.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyaviy ta'minlash manbalari.	16
1-bob bo'yicha xulosa.	20
2-BOB. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING MOLIYAVIIY MANBALARI TAHLILI.....	22
2.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash amaliyoti.	22
2.2. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda aholi ijtimoiy muhofazasining manzilliligini ta'minlash tadbirlari	29
2.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish amaliyoti.	36
2-bob bo'yicha xulosa.	43
3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISH- NING HARAKATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SHAROITDA AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING MOLIYAVIIY MANBALARI- NI MUSTAHKAMLASH.....	44
3.1. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.	44
3.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini mustahkamlash	52
3-bob bo'yicha xulosa.	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda "Islohot – islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun" tamoyili e'lon qilingan va amaliyotga joriy etilmoqda. Shu maqsadda fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil va manzilli davlat siyosatini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Sog'liqni saqlash va fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilishning yangi tizimini shakllantirish, nogironlarga tibbiy xizmat ko'rsatish va ularni reabilitatsiya qilish darajasini oshirishga, jamiyatning yetarlicha himoya qilinmagan va ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash, ularga ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatish va taqdim etilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat ijtimoiy dasturlarining amalga oshirilishi natijasida o'tgan davrda aholi salomatligi sezilarli darajada mustahkamlandi, onalar o'limi – 3,2, bolalar o'limi – 3,4 barobar kamaydi, o'rtacha umr ko'rish darajasi 66 yoshdan 74 yoshgacha, ayollar o'rtasida esa 76 yoshgacha uzaydi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat muassasalari bilan birgalikda "Mahalla", "Nuroni", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armalari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va boshqa ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy sheriklik mexanizmlari asosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ular jamiyat va davlatning barqaror, izchil rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish hamda hayot sifatini yaxshilash, oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining himoyaga muhtoj qatlamlarining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolar, jumladan,

imkoniyati cheklangan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashmoqda.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, insonparvarlik tamoyillari, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib: "Davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari turlarini ko'paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, og'ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, "nogiron" tushunchasi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" tushunchasidan foydalanish, nogironlikni aniqlash va oldini olish, ularning ta'lim olishi va ishga joylashishiga ko'maklashish, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning zamonaviy shakl va mexanizmlarini belgilash"¹ choralari belgilangan.

Bu tadbirlar ma'lum moddiy va moliyaviy resurslarni talab etadi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning moliyaviy manbalarini mustahkamlashning zarurligi, bunda davlat resurslari va, ayniqsa, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridan samarali va manzilli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bitiruv malakaviy ish uchun tanlab olingan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: 06/18/5308/0610-son. 23.01.2018.

Tadqiqot predmeti. Ilmiy izlanishimiz predmetini aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat byudjeti xarajatlari ijrosi hamda aholi ijtimoiy muhofazasida pensiya ta'minoti mexanizmlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot obyekti. Bitiruv malakaviy ishning izlanish obyekti sifatida davlat byudjetidan aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlarini moliyalashtirish amaliyoti, shuningdek O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Buxoro viloyat Shofirkon tuman bo'limi tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash va to'lash bilan bog'liq bo'lgan faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlashda davlat byudjeti hamda davlatning boshqa maqsadli jamg'armalari mablag'larining o'rni va ahamiyatini o'rganish va davlat resurslarining cheklanganligi sharoitida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini moliyalash manbalarini kengaytirish va mustahkamlash masalalarini o'rganish bitiruv malakaviy ishining maqsadini tashkil qiladi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilishning byudjet mexanizmini o'rganish va davlat byudjetining o'rni va ahamiyatini tahlil qilish;
- hududlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning manzilliligini ta'minlash mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini tahlil qilish;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda pensiya ta'minotining o'rni va ahamiyatini ochib berish;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish amaliyotini o'rganish;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishning moliyaviy manbalarini, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslarini mustahkamlashga va takomillashtirishga qaratilgan xulosalar va aniq takliflar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy jihatdan asoslab berish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Ushbu mavzu iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan, lekin mazkur bitiruv malakaviy ishda mavzunning kompleks o'rganilganligi hamda bir butun nazariy ishlanma yaratishga urinish bo'lganligi uning nazariy ahamiyatini belgilab beradi. Ishimizning amaliy ahamiyatini izlanishlarimiz asosida aholi ijtimoiy muhofazasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning byudjet mexanizmlarini yaxshilashga va pensiya ta'minoti dastklarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqarilganligi bilan izohlash mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ish kirish qismi, 7 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning hajmi 71 betni tashkil qiladi, ishda tahliliy materiallar 7 ta jadval, chizma shaklidagi 6 ta rasmda aks ettirilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, obyekti va predmeti, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Malakaviy ishning birinchi bobida aholi ijtimoiy muhofazasining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslari o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida aholi ijtimoiy muhofazasini moliyaviy ta'minlash amaliyoti tahlil qilingan, bu ishda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati davlat byudjeti ijrosi ma'lumotlari misolida, shuningdek, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tuman bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Uchinchi bobda aholi ijtimoiy muhofazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning moliyaviy jihatlari tahlil qilingan, ijtimoiy siyosatning maqsadli dasturlarini amalga oshirishning moliyaviy jihatlari o'rganilgan.

Xulosa qismida aholi ijtimoiy muhofazasining moliyaviy manbalarini mustahkamlashga qaratilgan ayrim fikrlar, xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

1-BOB. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING TASHKILIIY-HUQUQIIY ASOSLARI VA MOLIYAVIIY MANBALARI

1.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi, shakllari va tashkiliy-huquqiy asoslari

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun real shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oldimizga qo'yayotgan maqsad esa – olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir². Ushbu maqsadga erishish uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish ko'zda tutilgan. Ushbu yo'nalish, jumladan " fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash; aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish"³ chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.


Hukumat mamlakatimizda kam ta'minlangan toifadagi aholi sonini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik printsiplarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Bugungi kunda mamlakatimizda aholining samarali ijtimoiy muhofazasiga yo'naltirilgan maqsadli

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga sharh. Manba: <http://www.uza.uz>.

³ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 4.2-band. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

chora-tadbirlar, shu bilan birga, barqaror iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borildi:




1-rasm. Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari⁴

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash va aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo'lib, iqtisodiyotimizning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash yo'lida ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo'ldi. Bu davrda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, uning manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoyaning faol shakllarini yo'lga qo'yish alohida dolzarblik kasb etdi.

⁴ Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlash: yutuqlar, tendentsiya va istiqbollari. Ilmiy-ommabop risola. TMI. T.: 2016. 47-betdagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bu davrda respublikamizda aynan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi (2-rasm):



2-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari⁵

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning huquqiy asosini barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishini ta'minlash bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga muvofiq, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz qariyalarning huquqlari davlat himoyasidadir⁶. Shuningdek, uning ko‘plab boshqa moddalaridagi normalari ham aholining ijtimoiy himoyasiga oid mazmun bilan sug‘orilgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini barqarorlashtirish maqsadida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni saqlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash jarayonlarini davlat yo‘li bilan boshqarishning ko‘pdan-ko‘p usullari va

⁵ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

vositalaridan foydalanildi. Jumladan, bosqichma-bosqich ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar miqdori oshirildi, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklidagi to'lovlar joriy qilindi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet orqali qoplash, aholining turli muhtoj qatlamlariga nafaqalar tayinlash, ularning manzilli bo'lishini ta'minlash, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar paketini ishlab chiqish va uni to'liq mablag' bilan ta'minlash kabi usullari keng qo'llanildi. Bu tadbirlarning barchasi tegishli qonuniy-huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirildi.

Agar 2000-yilgacha bo'lgan davrda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining asosiy maqsadi, aholining amalda barcha qatlamlarini kafolatlangan ijtimoiy himoya bilan ta'minlash bo'lgan bo'lsa, keyinchalik asosiy e'tibor aholining faqat zaif qatlamlariga qaratiladigan bo'ldi. Aholining boshqa toifalarining turmush darajasini oshirish uchun, davlat tomonidan yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlik va daromadlarni, jumladan, kichik biznes sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqila boshlandi.

Aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-dekabrdagi "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror "voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish maqsadida" qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq, 2013-yil 1-yanvardan boshlab voyaga etmagan (14 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar bolalar soniga bog'liq ravishda yil boshida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50, 80 va 100 foizi miqdorida, 2 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga to'lanadigan nafaqalar eng kam ish haqining 2 barobari miqdorida, kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqa eng kam ish haqining 1,5-3 barobari miqdorida tayinlana boshladi.

Aholi turmush farovonligini oshirish masalalariga keyingi yillarda ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator hukumat qarorlari va ularni amalga oshirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi kunda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda Prezident qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo'nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq yo'nalish va tarmoqlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uni yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi muammolarni echish, bu sohalar rivojining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, oddiy odamlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalaridan qoniqishlariga erishish, aholining ta'sirchan ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda olib borish belgilangan, jumladan:

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish⁷.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi va bu nomdagi davlat dasturining

⁷ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

qabul qilinishi ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifa va yo‘nalishlari doirasida quyidagilar belgilandi⁸:

– hududlarni, ayniqsa ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tumanlar va shaharlarni, chekka aholi punktlarini kompleks, jadal rivojlantirish, tijorat banklarining faol ishtirokida yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta‘minlash va shu asosda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdorlarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish, aholining hayoti darajasi va sifatini oshirish;

– ta‘lim, ijtimoiy ta‘minot va sog‘liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning hayotda munosib o‘ringa ega bo‘lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Aholining kam ta‘minlangan qatlamini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3268-sonli qarori⁹ qabul qilindi. Bir qator idora va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan aholining kam ta‘minlangan qatlamini 2017–2018-yillarda ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hududiy manzilli dasturlari ma‘qullandi.

Ushbu hududiy manzilli dasturlar quyidagilarni nazarda tutadi:

a) mehnat bilan bandlikning ma‘lum bir turlari bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan kam ta‘minlangan oilalarga ularning oilasini o‘ziga etarliligini ta‘minlovchi mikrokreditlar tijorat banklarining imtiyozli

⁸ “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 17 dekabr F-4760-son farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 8-son, 119-modda.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 988-modda

kreditlash maxsus fondi mablagʻlari hisobidan quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

- tikuv mashinalari, matolar va boshqa sarf materiallari, kosibchilik faoliyati uchun inventarlar, maishiy, kompyuter va boshqa texnikalar, shuningdek, mehnat bilan bandlikni taʼminlovchi boshqa asbob-uskunalar xarid qilish uchun;

- shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (mini-issiqxonalar barpo etish, chorva mollari, parranda sotib olish, ogʻilxona va tovuqxona qurish, bogʻdorchilik inventarlari va asboblari xarid qilish) va uy joy taʼmiri uchun;

b) ogʻir uy-joy va maishiy sharoitlarda yashovchi, boquvchisini yoʻqotgan, nogironlarni parvarishlayotgan oilalarga quyidagi maqsadlarda begʻaraz yordam koʻrsatiladi:

- 2017-va 2018-yillarda respublikada uy-joyi boʻlmagan yoki avariya holatidagi va puturdan ketgan uy-joylarda yashovchi har bir tumandan 2 ta, har bir shahardan esa 5 oilaga 10 yil mobaynida ixtiyoriga olish huquqisiz arzon uy-joylar xarid qilishda;

- 2017- va 2018- yillarda respublikadagi tumanlarning har biridan 10 ta, shaharlardan esa 25 ta kam taʼminlangan oilaga turarjoy taʼmiri (tomni taʼmirlash, yangi pol oʻrnatish, derazalarni almashtirish va sh.k.) oʻtkazishda;

- respublikaning har bir tumani va shaharidan 70 tadan oilaga har yili maishiy texnika (gaz va elektr pechlar, muzlatkichlar, tikuv mashinalari va sh.k.) yoki bir bosh yirik shoxli qoramol xarid qilishda;

- respublikaning har bir tumani va shaharida ogʻir kasali mavjud, davolatish uchun toʻlov qilishda mablagʻi yoʻqligi aniqlangan oʻrtacha 6 tagacha kam taʼminlangan oilaga tibbiy xizmatlarini toʻlashda.

PQ-3268-sonli Qaroriga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida Jamoatchilik ishlari fondi tuzildi.

Oʻzbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda mamlakatning barcha hududlaridagi,

ayniqsa qishloq joylar va chekka hududlardagi mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolarini aholi punktlarini, mahallalarni, obodonlashtirish bo'yicha jamoat ishlariga – ariqlarni va irrigatsiya tarmoqlarini tozalashga, turarjoy-kommunal xo'jalik obyektlarini ta'mirlashga, infartuzilmani yaxshilashga, yo'llar va ko'chalar, turarjoy fondi va unga yondosh hududlarni ob'ektlarini ta'mirlashga, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlariga keng jalb qilish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Aholining band bo'lmagan qatlamini mehnatga jalb qilish 2017-yilning 1-oktyabridan Qorqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan tumanida tajriba tariqasida, 2018-yilning 1-yanvaridan bosqichma-bosqich respublikaning barcha tumanlarida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

O'rnatilayotgan tartibga ko'ra,

- jamoat ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar ularning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'laridan olgan daromadi jismoniy shaxslarning daromadidan to'lanadigan soliqdan ozod qilinadi;

- jamoat ishlariga jalb qilinayotgan jismoniy shaxslarning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mehnat haqi yagona ijtimoiy to'lovga tortilmaydi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari va Moliya vazirliklariga 2017–2018-yillarda 14 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish ko'rinishida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun byudjet mablag'larini ko'paytirish, yordam pullari oluvchi kontingentni mos ravishda 1,5 va 2 barobar kengaytirishni ta'minlash belgilandi. Bu maqsadda Moliya vazirligiga 14 yoshgacha farzand tarbiyalayotgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lashni moliyalashtirish uchun qo'shimcha byudjet mablag'lari ajratish vazifasi topshirildi.

2018-yilning 22-yanvar kuni mamlakatimizning kelgusi istiqbolini belgilashga xizmat qiluvchi yana bir muhim huquqiy hujjat qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-son Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturining "4.1. Aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish" nomli bo'limida ushbu maqsadlar uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilangan¹⁰:

- ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha «iste'mol savatchasi»ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish;

- davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari turlarini ko'paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish;

- "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

- og'ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

2018-yilda mazkur Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga barcha manbalardan 11239,2 mlrd. so'm va 1284,9 mln. AQSh dollari hajmidagi moliyaviy resurslarni sabarbar etish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, uning ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda davlat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Boshqa tuzilmalar va fuqarolik institutlari


¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.

mazkur yo‘nalishlardagi davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko‘maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilishning boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo‘lga qo‘yadi.

1.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyaviy ta‘minlash manbalari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy iqtisodiy holatiga muvofiq takomillasha boradi. Ijtimoiy muhofazaning mablag‘ miqdori va sifati mamlakatda joriy etilayotgan davlat dasturlariga va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirishning ko‘pkanalli tizimi shakllangan bo‘lib, ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjud (3-rasm):



3-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari¹¹

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Davlat budjeti mablag‘lari. Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

- 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga har oylik nafaqalar;
- 2 yoshgacha bolalari bo‘lgan onalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- kam ta‘minlangan oilalarga beriladigan har oylik yordam puli.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ushbu to‘lovlarning huquqiy asosini voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalarga va kam ta‘minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish, respublika aholisining real daromadlari va farovonligi barqaror o‘lishi sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli va mas‘uliyatini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-dekabrfagi “Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 350-sonli Qarori tashkil qiladi.

Bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo‘yicha nafaqalar va moddiy yordam to‘lovlarini mablag‘ bilan ta‘minlashning manbalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- mahalliy byudjetlar mablag‘lari;
- byudjetdan tashqari manbalar (jamoat va hayriya jamg‘armalari, korxonalarning mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar).

Mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to‘lash Xalq bankining bo‘linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining maxsus bank hisobraqamlariga o‘tkaziladigan Davlat byudjeti xarajatlarning tegishli iqtisodiy tasnifi bo‘yicha aks ettirilgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, aholining barcha qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-avgustdagi 409-son qaroriga ko‘ra, respublikamizning barcha umumta‘lim maktablariga 1-sinfga chiqqan o‘quvchilari o‘quv qurollari to‘plami bilan tekin ta‘minlanadilar. Bu o‘quv qurollari to‘plamiga quyidagilar kiradi: portfel, 12 ta daftar, oddiy va rangli qalamlar, plastilin,

qalamdon, ruchkalar, o'chirg'ichlar, yelim, rangli qog'ozlar to'plami, rasm chiziladigan albom, bo'yoqlar.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 409-sonli qaror bilan kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari qishki kiyim-bosh to'plami bilan ta'minlanadilar. Buning uchun maktablarning rahbarlari ota-onalar qo'mitasi bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalarning I-IX sinflar o'quvchilarini aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlarni kiyim-bosh o'lchami va bolaning jinsini ko'rsatgan holda xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limlariga taqdim etadi. Qishki kiyim-bosh to'plamiga palto yoki kurtka; etik; telpak; qo'lqop kiradi. Ushbu maqsadlarfagi xarajatlar ham tegishli mahalliy byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadi.

Davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi maqsadli jamg'armalari mablag'lari. Katta yoshdagi aholi, nogironlar va boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy muhofazalash tizimida pensiya ta'minoti eng asosiy bo'g'in hisoblanadi. U bir necha vazifalarni bajaradi, ularning eng muhimi mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yo'qotilayotgan daromadni kompensatsiya qilishdir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi maqsadli jamg'armasi sifatida fuqarolar pensiya ta'minotining asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari. Ijtimoiy sug'urta - fuqarolarning qarilik, kasallik, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishning moliyaviy asosini yaratish bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta munosabatlari orqali jamiyat miqyosida turli ijtimoiy iste'mol fondlari shakllanadi va belgilangan tartibda ishlatiladi. Ijtmoiy sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadigan pul jamg'armalari fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalani shakllari va usullarining moliyaviy asosini yaratishga xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy sug'urta ajratmalari sifatida yuridik shaxslardan undiriladigan yagona ijtimoiy soliq (yoki budjet tashkilotlari tomonidan ular xarajatlarning II-guruhi bo'yicha rejalashtiriladigan va ajratiladigan ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urta ajratmalari) o'rnatilgan

nisbatlarda taqsimlanib, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va Kasaba uyushmalari Federatsiyasining ijtimoiy sug'urta budjetini shakllantirishga yo'naltiriladi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy ximoyalash hisoblanadi, ya'ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi.

Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari. Korxona va tashkilotlar ham o'z xodimlarini hamda turli davrlarda shu korxonada uzoq yillar ishlab ketgan ishchi-xodimlarini o'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy jihatdan muhofaza qiladilar. Ularning bu maqsadlarga yo'naltirgan mablag'lari soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq, "Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga (biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda) kamaytiriladi"¹², deb belgilab qo'yilgan.

Aholini ijtimoiy homoya qilish to'g'risida so'z borganda shuni ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda o'ziga xos tajriba, ya'ni har yili jamiyat diqqat-e'tiborini maxsus tanlab olingan yirik ijtimoiy muammoni hal etishga qaratish yo'lga qo'yildi. 1997-yildan boshlab keyingi har bir yil mamlakatda muayyan bir maqsadga bag'ishlangan bo'lib, uni hayotga tadbqiq etish uchun tegishli maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda. Agar so'nggi yillar tajribasiga nazar tashlasak: 2007-yil – Ijtimoiy himoya yili, 2008-yil – Yoshlar yili, 2009-yil – Qishloq farovonligi va taraqqiyoti yili, 2010-yil – Barkamol avlod yili, 2011-yil – Kichik biznes va tadbirkorlik yili, 2012-yil –Mustahkam oila yili, 2013-yil – Obod turmush yili, 2014-yil – Sog'lom bola yili, 2015-yil – Keksalarni e'zozlash yili, 2016-yil – Соғлом ona va bola yili, 2017-yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilindi va har bir yilning ustuvorliklari belgilab berildi. 2018-yil esa

¹² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 159-modda.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlandi. Odatda, yil nomlari bilan ataluvchi Davlat dasturlari ishlab chiqiladi, ularning amalga oshirilishi muayyan mablag‘larning safarbar etilishini talab etadi. Xususan, Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturini amalga oshirish uchun 11 239,2 mlrd. so‘m va 1 284,9 mln. AQSh dollarini safarbar qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu mablag‘larning 5 348,9 mlrd. so‘mi Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari, 1 560,1 mlrd. so‘mi ijrochilar va hayriya tashkilotlari mablag‘laridir¹³. Bunda davlat byudjeti mablag‘lari tarkibiga markazlashgan investitsiyalar, vazirlik, idora va tashkilotlarning xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjet mablag‘lari kiradi.

1-bob bo‘yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda yashash joyidan qat’iy nazar, barcha aholi qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda teng shart-sharoitlarni yaratish; ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport muassasalari xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy sohalar xodimlari mehnatini har tomonlama rag‘batlantirish; aholini ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli bo‘lishini ta’minlash; ijtimoiy himoyaning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash; ijtimoiy siyosat tadbirlarini amalga oshirishda turli nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi, ishtirokini mustahkamlash; aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishni ta’minlash uchun iqtisodiyotning barqaror o‘shishini rag‘batlantirish zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning huquqiy asosini

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.

barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishini ta'minlash bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi. Mamlakatda mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini barqarorlashtirish maqsadida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni saqlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash jarayonlarini davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va vositalaridan foydalanildi. Jumladan, bosqichma-bosqich ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar miqdori oshirildi, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklidagi to'lovlar joriy qilindi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet orqali qoplash, aholining turli muhtoj qatlamlariga nafaqalar tayinlash, ularning manzilli bo'lishini ta'minlash, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar paketini ishlab chiqish va uni to'liq mablag' bilan ta'minlash kabi usullari keng qo'llanildi. Bu tadbirlarning barchasi tegishli qonuniy-huquqiy asosga tayangan holda hamda tegishli moliyaviy resurslarni jalb qilgan holda amalga oshirildi.

Jahondagi rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar kabi, O'zbekistonda ham davlat tomonidan boshqarish lozim bo'lgan bir qator muammolar guruhiga aholini ijtimoiy jihatdan muhofazalash muammosini samarali yechish masalasi kiradi. Shuning uchun respublikamizda islohotlar davrida aholining moddiy ahvolini keskin yomonlashtiradigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlarni barbod qiladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklarini aholi elkasiga tashlaydigan bozor iqtisodiyotiga o'tish andozasi bizning modelimizga to'g'ri kelmasligi ayon bo'ldi.

Shu bilan birga, davlatning siyosati aholi muhofazasining moliyaviy manbalarini mustahkamlash va barqarorlashtirishga, ularning kopkanalliligini saqlab qolishga qaratildi.

2-BOB. AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISHNING MOLIYAVIY MANBALARI TAHLILI

2.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlash amaliyoti

Bugungi kunda mamlakatimizda keng ko‘lamlarda amalga oshirilayotgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo‘nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog‘liq yo‘nalish va tarmoqlarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta‘minlash, uni yangi bosqichga ko‘tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, bu sohalar rivojining iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyev bu boradagi ishlarga baho berib: “O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g‘oyat muhim yo‘nalishi bo‘lgan ijtimoiy sohani isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta‘minlanmoqda. Ma‘lumki, aholimizni, ayniqsa, byudjet sohasi xodimlarini, kam ta‘minlangan oilalarni uy-joy muammosi ko‘pdan buyon qiynab kelardi. Bu og‘ir ijtimoiy muammoga biz deyarli e‘tibor bermay kelganimiz ham bor gap”¹⁴, - deb ta‘kidladilar. Bu chora-tadbirlar, shubhasiz, muayyan moliyaviy resurslarni talab etadi.

Ma‘lumki, aholini ijtimoiy himoya qilishning moliyaviy manbalari turli-tumanligi bilan xususiyatlanadi. Bu manbalarning tarkibida davlat byudjeti alohida o‘rin egallaydi. Shunki aholining ijtimoiy muhofazasi bilan bog‘liq xizmatlarning ko‘pchiligi davlat tomonidan kafolatlangan va davlat tomonidan mablag/ bilan ta‘minlanadi. Umuman olganda, mamlakat miqyosida davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma‘nodagi ifodasini o‘zida aks ettiradi. Buni quyidagi ma‘lumotlardan ko‘rish mumkin.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 y. B.7.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi¹⁵*(jamiga nisbatan foizda)*

Ko‘rsatkichlar	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y. (prong.)
Davlat byudjeti xarajatlari	100	100	100	100	100	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	58,7	59,5	59,1	59,2	57,8	56,4
Iqtisodiyotga xarajatlar	10,6	10,7	10,9	10,6	10,8	11,2
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	5,6	4,7	4,7	4,9	5,2	4,9
Davlat hokimiyati va boshqaruvi, sud organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	4,5	4,3	4,4	4,3	4,4	4,9
Boshqa xarajatlar	20,6	20,8	20,9	21,0	21,8	22,6

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlari ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari salmog‘i yuqori bo‘lmoqda. Xususan, bu turkum xarajatlar 2013-2017-yillarda jami byudjet xarajatlari 58,9-57,8 foizini tashkil etgan. 2018-yilda ushbu xarajatlar 35034,0 milliard so‘m hajmida rejalashtirilmoqda va davlat byudjeti xarajatlari ulushining 56,4 foiz bo‘lishi kutilmoqda.

Davlat byudjetining asosiy parametrlari ijrosi yuzasidan 2018-yil I-chorak uchun taqdim etilgan ma’lumotlar ham davlat byudjeti xarajatlari ichida eng ko‘p mablag‘ ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga (7 021,5 mlrd) sarflangan.

2018-yil 1-choragida xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolingani bo‘lib, ijtimoiy xarajatlar davlat byudjetining 55,2 foizini yoki YaIMga nisbatan 10,9 foizni tashkil etgan. Bir qator, xususan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

takomillashtirish, arzon uy-joylar barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish tadbirlarini moliyalashtirish byudjet parametrlarida belgilangan yo'nalishlar doirasida o'z vaqtida amalga oshirildi. 2018-yil I-choragida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'larning qariyb 80 foizi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan¹⁶. Ushbu xarajatlarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi¹⁷

t/r	Ko'rsatkichlar	2018-yil I-chorak bo'yicha	
		mlrd.so'm	jamiga nisbatan %
	Ijtimoiy xarajatlar	7691,5	100
1.	Ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	7021,5	91,3
1.1.	Ta'lim	4053,1	52,7
1.2.	Sog'liqni saqlash	1865,3	24,3
1.3.	Madaniyat, sport	243,2	3,2
1.4.	Fan	30,7	0,4
1.5.	Ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya pul to'lovlari	691,0	9,0
1.6.	Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari	138,1	1,8
2.	Uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	670,0	8,7

Bundan tashqari, 2013-2017-yillar byudjet ijrosi ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, uy-joylar qurish dasturini hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalarini ochish maqsadlariga yildan-yilga tobora ko'proq mablag'lar safarbar etilmoqda, bu maqsaddagi xarajatlari 2015-yilda davlat

¹⁶ Manba: <http://parliament.gov.uz/uz/events/fractions/23940/>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yil I-chorak bo'yicha hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: www.mf.uz

byudjetining 4,3 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkichning 5,5 foizga yetganini, 2018-yil parametrlari bo'yicha esa ushbu xarajatlarni moliyalashtirishga 370 mlrd.so'm mablag' safarbar qilish ko'zda tutilgan. 2018-yilning I-choragida bu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lar davlat byudjeti jami xarajatlarining 4,7 foizini, ijtimoiy xarajatlarning esa 8,7 foizini tashkil qildi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi obyekti sifatida Buxoro viloyati Shofirkon tumani tanlab olingan. Shofirkon tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Maydoni 3,72 ming kv.km. Tumanda 8 ta shaharcha (shahar tipidagi posyolka), 12 ta qishloq fuqarolar yig'ini (Do'rman, Denov, Jo'yirabod, Tezguzar, S.Jo'ra, Bog'iafzal, M.Chandir, Sh.Hamroev, Jo'ynav, Iskogare, Vardonze), 37 ta mahalla fuqarolar yig'ini bor. Markazi -Shofirkon shahri. Aholisi 158,1 ming kishi, asosan o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar, qozoq, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham yashaydi.¹⁸

3-jadval

Buxoro viloyati Shofirkon tuman mahalliy byudjeti xarajatlari tarkibi¹⁹

foizda

№	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami	91,4	91,5	90,8
2.	Iqtisodiyotga xarajatlar	4,6	4,5	5,1
3.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	1,0	1,0	1,0
4.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash	3,0	3,0	3,1
	Jami xarajatlar	100,0	100,0	100,0

Ma'lumki, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash xarajatlari qariyb 100 foiz mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Tahlil uchun tanlab olingan Buxoro viloyati Shofirkon tuman mahalliy byudjeti xarajatlari ijrosi

¹⁸ Manba: <http://buxoro.uz/post/buxoro-viloyati-shofirkon-tumani-hokimligi-75161>

¹⁹ Shofirkon tuman moliya bo'limi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ko'rsatkichlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, tuman byudjetining salmoqli qismi ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga sarflanadi. Xususan, 2015-2017-yillar davomida tuman byudjetining 90,8-91,5 foizi ijtimoiy maqsadlarga safarbar qilingan (3-jadval).

Xarajatlar tarkibidagi ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalarga ajratilgan mablag'lar 2015-yilda 7841,1 mln.so'm, 2016-yilda 8621,4 mln.so'm, 2017-yilda 7995,6 mln.so'mdan iborat bo'ldi (4-jadval).

4-jadval

Buxoro viloyati Shofirkon tuman mahalliy byudjeti xarajatlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi²⁰

Ko'rsatkichlar	2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	mln.so'm	%	mln.so'm	%	mln.so'm	%
Jami xarajatlar	63026,3	100	71135,7	100	78711,3	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami	57618,8	91,4	65124,8	91,6	71510,0	90,9
Maorif	34099,9	54,1	38246,3	53,8	43130,3	54,8
Sog'liqni saqlash	15152,4	24,0	17776,9	25,0	19877,3	25,3
Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	345,4	0,5	270,1	0,4	309,3	0,4
Fan	41,2	0,1	53,2	0,1	59,4	0,1
Ijtimoiy ta'minot	118,1	0,2	131,0	0,2	110,6	0,1
Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	7841,1	12,4	8621,4	12,1	7995,6	10,2
Ijtimoiy ko'nikma markazlari	20,5	0,0	26,0	0,0	27,5	0,0
Iqtisodiyotga xarajatlar	2921,5	4,6	3192,3	4,5	3989,4	5,1
Qishloq xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	308,1	0,5	348,8	0,5	397,4	0,5
Obodonlashtirish	2613,5	4,1	2843,5	4,0	3592,0	4,6
Davlat boshqaruv organlarini saqlash	600,3	1,0	678,9	1,0	790,0	1,0
Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash	1861,6	3,0	2139,6	3,0	2421,9	3,1
Zahira jamg'armasi	24,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Davlat byudjetining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ichida ijtimoiy nafaqalar asosiy o'rinni egallaydi. Voyaga etmagan bolalari bo'lgan

²⁰ Shofirkon tuman moliya bo'limi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish, respublika aholisining real daromadlari va farovonligi barqaror o'sishi sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida 2012-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli Qarori²¹ qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq, ijtimoiy nafaqalarni to'lashning aniq tarzidaligini oshirgan holda onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lashning va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamning amaldagi miqdorlari va muddatlarini saqlab qolindi. Shu bilan birga, voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan bolalarning eng katta yoshi 14 yoshgacha pasaytirildi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar bolalar soniga bog'liq ravishda yil boshida belgilangan eng kam oylik ish haqining quyidagi miqdorlarida:

- bir nafar farzandi bo'lgan oilaga – 50 foizi;
- ikki nafar farzandi bo'lgan oilaga – 80 foizi;
- uch nafar va undan ortiq farzandlari bo'lgan oilaga – 100 foizi miqdorida to'lanadigan bo'ldi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab nafaqalar va moddiy yordamning barcha turlari uchun oila muhtojligini aniqlashning yagona mezonini joriy etish hamda ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlashda jami daromadni hisoblab chiqish tartibi soddalashtirildi. Shuningdek, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash tartibini birxillashtirish, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun fuqarolar yig'inlari tomonidan vakolat berilgan komissiyalarning hamda ajratiladigan byudjet mablag'laridan aniq tarzda va maqsadli foydalanishni ta'minlash bo'yicha

²¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 50-son, 562-modda

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga biriktilgan bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining tuman (shahar) organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ushbu choralar aholini faol ishlab chiqarishga undash maqsadida amalga oshirilmoqda, xususan, bandlikni ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etishning hududiy dasturlarini amalga oshirish doirasida, eng avvalo, qishloq joylarning yosh oilalaridagi shaxslarni ishga joylashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo'yicha nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishlari kerak:

- ijtimoiy adolatga so'zsiz rioya qilish;
- keng oshkoralik va ochiqlikni ta'minlash;
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashsiz daromadlarini oshirishning aniq imkoniyati bo'lmagan haqiqatda ehtiyojmand oilalarga nafaqalar va moddiy yordam berish;
- nafaqalar va moddiy yordamni manzilli tarzda tayinlashni ta'minlash yo'li bilan ularni to'lashga ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlariga ayrim oilalar va fuqarolar tomonidan boqimandalik munosabatida bo'lish, o'zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo'l qo'ymaslik;
- oila a'zolarining moddiy farovonligi, bolalarni tarbiyalash, ularni har tomonlama jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ma'lumoti va kasb darajasini oshirish borasida oilaning mas'uliyatini kuchaytirish.

2.2. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda aholi ijtimoiy muhofazasining manzilliligini ta'minlash tadbirlari

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat Dasturida "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar hamda moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish" ko'zda tutilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan edi. Bunda "haqiqatdan ehtiyojmand va davlat ko'magiga muhtoj bo'lgan kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga nafaqa va moddiy yordam tayinlash, vaqtinchalik yashash joyibo'yicha nafaqa, moddiy yordam tayinlash tartibini belgilashda qulayliklar nazarda tutilgan"²².

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-son qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom" bilan tartibga solinadi. Ushbu nizomga ko'ra bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam har bir oila a'zosiga o'rtacha oylik jami daromad miqdori jami daromad aniqlanayotgan davr uchun belgilangan eng kam oylik ish haqining 1,5 baravardan ortiq bo'lmagan oilalarga tayinlanadi.

²² 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam olishda quyidagi toifadagi fuqarolar va oilalar ustun darajadagi huquqlarga ega:

- ota-onasining ikkisini ham yo'qotgan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlar shug'ullanayotgan oilalar;

- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ham nogiron bo'lgan oilalar;

- 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq bolalarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlardan alohida yashayotgan beva ayollar (beva erlar);

- nogiron bolasi (bolalari) bo'lgan oilalar;

- bolani (bolalarni) to'liq bo'lmagan oilada tarbiyalayotgan onalar (otalar). Bunda bolaning amalda to'liq bo'lmagan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanishini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi belgilaydi;

- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish izlovchi sifatida bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarida hisobda turgan oilalar;

- yolg'iz pensionerlar.

Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining doimiy yashash (ro'yxatdan o'tish) joyi bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan oila boshlig'i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a'zosining yozma arizasi asosida, bola parvarishi bo'yicha nafaqa esa – bolaning onasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning arizasi asosida tayinlanadi.


Ariza beruvchining ehtiyojmandligi darajasini aniqlash va bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash (rad etish) to'g'risida xulosa chiqarish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida maxsus komissiya tashkil etiladi, uning tarkibi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi tomonidan 12 oy muddatga, kamida 5 kishidan iborat etib tasdiqlanadi.

Maxsus komissiya tarkibiga o'zini o'zi boshqarish organi maslahatchilari, kotibi, ushbu organ hududiga biriktirilgan tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimi, shuningdek

zaruriyat bo'lganda, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiylari va moliya organlari vakillari kiritiladi.

Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad, nafaqa olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadi summasini oila tarkibiga kiritiladigan oila a'zolari soniga bo'lingan holda aniqlanadi.

O'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadiga, oila a'zolari tomonidan olingan quyidagi daromadlar kiritiladi:



4-rasm. Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadlari tarkibi²³

Agar oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlarda daromad summasi ko'rsatilmagan bo'lsa yoki eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam summa ko'rsatilgan bo'lsa, u holda oilaning o'rtacha oylik jami daromadini hisoblash uchun daromadni normativdan past ko'rsatgan yoki daromadi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmagan oila a'zolarining har biriga nafaqa

²³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-son qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom" asosida muallif tomonidan tuzildi.

yoki moddiy yordamga murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 2,5 baravariga teng bo'lgan normativ daromad miqdori qabul qilinadi.

Agar taqdim etilgan ma'lumotlarda shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olingan o'rtacha oylik daromad miqdori ko'rsatilmagan yoxud shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olinadigan belgilangan normativ daromaddan past ko'rsatilgan bo'lsa, u holda oilaning jami daromadini aniqlash uchun shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olinadigan oylik daromadning normativ miqdori qabul qilinadi.

Shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olinadigan normativ daromad shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan sotixlar sonini nafaqa yoki moddiy yordam so'rab murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 0,2 miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Nafaqalarni tayinlash yoki uni tayinlashni rad etish to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini (Komissiya) tomonidan ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Agar fuqarolar yig'ini ishtirokchilarining (Komissiya a'zolarining) oddiy ko'pchiligi qarorni yoqlab ovoz bersa u qabul qilingan hisoblanadi.

Tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to'lash Xalq bankining bo'linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus bank hisob raqamlariga o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining tegishli iqtisodiy tasnifi bo'yicha aks ettirilgan holda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Nafaqa va moddiy yordamning har bir turi uchun alohida maxsus bank hisob raqamlari ochiladi. Xalq banki muassasalari har oyda joriy oyning oxirigacha bo'lgan muddatda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini maxsus bank hisob raqamlaridagi qoldiqlar, shu jumladan joriy oy uchun, shuningdek hisobot yili boshidan boshlab tushumlar summolari va amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

Tuman (shahar) moliya bo'limi mablag'larni vedomostlar bo'yicha tayinlangan summalar doirasida, biroq byudjetda nazarda tutilganidan ortiq

bo'lmagan, nafaqalar va moddiy yordam to'lashga tegishli byudjetning g'aznachilik shaxsiy hisobraqamini ko'rsatgan holda, to'lov amalga oshiriladigan oyning 5-sanasidan boshlab, biroq oyning 25-sanasidan kechikmay har bir fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining maxsus hisobraqamlariga alohida to'lov topshiriqnomalari orqali Yagona g'aznachilik hisob raqamidan o'tkazadi. Bunda vedomostlar bo'yicha qisman moliyalashtirish taqiqlanadi. Mablag'larni tuman (shahar) moliya bo'limlarining Yagona g'aznachilik hisobraqamidan o'tkazish g'aznachilik bo'linmalari tomonidan, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Har bir nafaqa va moddiy yordam bo'yicha vedomostning bir nusxasi tuman (shahar) moliya bo'limida qoladi. Mablag'lar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus hisobraqamlariga o'tkazilgandan keyin tasdiqlangan vedomostlarning ikkinchi va uchinchi nusxalari moliya organlari tomonidan tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga taqdim etiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mablag'lar ularning hisob raqamlariga tushgandan keyin vedomostlarning ikkinchi va uchinchi nusxalarini to'lov topshiriqnomalari bilan birga nafaqani to'lash uchun Xalq bankining xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalariga (filiallariga) taqdim etiladi.

Oyning oxirgi ish kunida vedomostlar yopiladi, tayinlangan, ammo o'z vaqtida talab qilib olinmagan nafaqa, nafaqa oluvchining nomiga maxsus depozit hisobraqamiga o'tkaziladi va oluvchining birinchi talabiga ko'ra to'lanadi. Yopilgan vedomostning uchinchi nusxasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga taqdim etiladi. To'lov nafaqa va moddiy yordam oluvchining yashash joyi bo'yicha Xalq bankining bo'linmalari (filiallari) tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'zda tutilgan byudjet mablag'larini viloyatning tumanlari (shaharlari) o'rtasida taqsimlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan har bir tuman (shahar) hududida yashovchi oilalar muhtojligini, ushbu oilalarning tarkibi va oldingi davrlarda ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishi (foydalanilishi) darajasini inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Koʻzda tutilgan byudjet mablagʻlarini fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining maxsus hisobraqamlariga taqsimlash tuman (shahar) moliya boʻlimi tomonidan Bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi bilan birgalikda ehtiyojmand oilalar sonini hisobga olingan holda, moliyalashtirishga boʻlgan ehtiyojdan kelib chiqib, amalga oshiriladi.

Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan Bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimi bilan birgalikda har oyda bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi boʻyicha nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va toʻlash toʻgʻrisida hisobot tuziladi hamda u hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha boʻlgan muddatda tuman (shahar) moliya boʻlimiga va tuman (shahar) Bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markaziga taqdim etiladi.

Tuman (shahar) moliya boʻlimlari hamda bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasigacha hisobotlarni fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari kesimida tegishli Qoraqalpogʻiston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga taqdim etadilar, ular oyning 20-sanasigacha hisobotlarni tegishli Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga taqdim etadilar.

Bir yil mobaynida oluvchilar tomonidan (vafot etganligi, yashash joyi oʻzgarganligi va moddiy yordam oluvchining aybi bilan boshqa sabablarga koʻra) talab qilib olinmagan mablagʻlar fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining hisobraqamlariga tiklanishi kerak.

Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining maxsus hisobraqamlaridagi foydalanilmagan pul mablagʻlari qoldigʻi olib qoʻyilmaydi va navbatdagi davrda nafaqalar toʻlash uchun yoʻnaltirilishi kerak.

Shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash masalalarida avvalgi yillarda qabul qilingan hukumat qarorlari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Xususan Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-avgustdagi 409-son qaroriga ko'ra, birinchi sinf o'quvchilari o'quv yilining boshlanishida quyidagi o'quv qurollari to'plami bilan bepul ta'minlanadilar: portfel; 12 ta daftar; oddiy va rangli qalamlar; plastilin; qalamdon; ruchkalar; o'chirg'ichlar; elim; rangli qog'ozlar to'plami; rasm chiziladigan albom; bo'yoqlar.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-avgustdagi 409-son qarori bilan esa kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini qishki kiyim-bosh to'plami bilan ta'minlash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, maktablarning rahbarlari ota-onalar qo'mitasi bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalarning I-IX sinflar o'quvchilarini aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlarni kiyim-bosh o'lchami va bolaning jinsini ko'rsatgan holda xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlariga taqdim etadi. Qishki kiyim-bosh to'plamiga palto yoki kurtka, etik, telpak, qo'lqop kiradi.

Xulosa qilib aytganda, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun nafaqat ularga turli miqdorlarda va davomiylikda nafaqalar, moliyaviy yordamlar berish, balki ularning olgan daromadlarini imtiyozli tartibda soliqqa tortish: soliq yengilliklarini berish, soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish, ma'lum davrgacha soliqqa tortmaslik, shuningdek, aholi bandligini oshirish, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishini ta'minlash, hududlarda yangi ish o'rinlarni ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, nogironlarga ishlash uchun sharoitlar yaratish va shu kabi boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining turmush farovonligini yanada mustahkamlash omili bo'lib xizmat qiladi.

2.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish amaliyoti

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgan va yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Quyida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2016-yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yilda yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Ammo so'nggi yillarda daromadlarning tarkibidagi asosiy manbalaridan hisoblangan ish haqi hamda pensiyalarning o'sish sur'atlari pasaygan bo'lib, bu holat aholining umumiy daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

5-jadval


2000-2016-yillarda respublika aholisi daromadlari, ish haqi va pensiyalar²⁴

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2016-y.
I. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'mda	96,4	371,8	1668,1	4565,2
o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi, foizda	124,7	117,4	120,1	110,0
II. Yillik o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda	13,5	81,5	504,8	1293,8
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda	146,0	138,7	129,4	110,4
III. Belgilangan o'rtacha pensiya miqdori (yil oxiriga), ming so'mda	7,4	31,7	171,9	494,2
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda	152,0	143,5	125,9	112,8

O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar muntazam ravishda oshib borgan va 2016-yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar 2000-yildagi

²⁴ Manba: www.stat.uz

darajasiga nisbatan 11,7 marta real oshgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 23,6 va 18,1 marta ortgani kuzatildi.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2000-yilga nisbatan aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning o'sishi dinamikasi²⁵ (barobar)

Ijtimoiy muhofazaning asosiy iste'molchilari mehnatga layoqatsiz fuqarolar hisoblanadi. Bu fuqarolar o'z navbatida ikki asosiy guruhni tashkil qiladi:

- ijtimoiy foydali mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan shaxslar;
- mehnat qilish yoshiga etmagan shaxslar.

Shunga ko'ra, ijtimoiy yordamni ikki asosiy turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- pensiya ko'rinishidagi yordam;
- nafaqa ko'rinishidagi yordam.

Mehnatga qobiliyatli yoshdan katta fuqarolar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishda mamlakatda tarkib topgan pensiya ta'minoti asosiy o'rinni egallaydi. Pensiya ta'minotining bajaradigan muhim vazifalaridan biri – fuqaroning mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yo'qotilayotgan daromadning bir qismini kompensatsiya qilish hisoblanadi.

Pensiya ta'minoti tizimi pensiya yoshini oshirish, nogironlarni rehabilitatsiya qilishga intilish, shikastlanish va kasbiy kasallanishni kamaytirishga intilishni

²⁵ Manba: www.stat.uz

rag'batlantirishi kerak. Pensiyaning miqdori mehnatning davomiyligi va intensivligiga bog'liq bo'lishi kerak.

Haqiqatan ham mamlakatimizda shakllangan pensiya ta'minoti tizimi fuqarolarimizni manzilli va muntazam ijtimoiy himoya qilinishining sinalgan va ta'sirchan mexanizmlarini o'zida ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, pensiyaning quyidagi uch turi mavjud:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Bugungi kunda pensiya yoshi O'zbekiston Respublikasida nafaqat Yevropa, Amerika, Osiyo mamlakatlari orasida, balki MDH davlatlari ichida ham eng kichik hisoblanib, muddatidan avval pensiyaga chiqish huquqini hisobga olgan holda, o'rtacha erkaklarda 58 va ayollarda 53 yoshni tashkil etadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, pensiya yoshi jahonda o'rtacha 65 yosh. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida bu ko'rsatkich erkaklar uchun 63 va ayollar uchun 58 yoshni tashkil etadi. Misol uchun, Tojikiston va Qirg'izistonda pensiya yoshi tegishlicha 63 va 58 yosh, Turkmanistonda tegishlicha 62 va 57 yosh bo'lsa, Qozog'istonda erkaklarda 63, ayollarda 58,5 yoshdir.

Shuningdek, pensiya qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda nogironligi bor insonlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy ahvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

- mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda;
- umumiy kasallik (mehnat bilan bog'liq bo'lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki avariylar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi mehnat vazifasini bajarishda, korxona, tashkilot hududida sodir bo'lsa, nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Marhumning qaramog'ida turmagan otasonasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manбайдan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar.

Pensiyalar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanib, uning miqdori ish stajining muddatiga bog'liq

bo‘lib, pensiyaning tayanch miqdori, ish staji uchun pensiyaning oshirilishi va pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

Hozirgi vaqtda pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning to‘lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tahlil qilinayotgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Buxoro viloyat Shofirkon tuman bo‘limi ma’lumotlariga ko‘ra, tumanda 2017-yilning 1-dekabr holatiga jami bo‘lib 180 538 kishiga pensiya tayinlangan, shundan 71,1 foizini yoshga doir pensiyalar, 18,0 foizini nogironlik pensiyalari, 3,0 foizini boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari oluvchilar tashkil qiladi. Pensiya jamg‘armasidan ijtimoiy nafaqalar oluvchilar 1502 kishini yoki umumiy kontingentning 7,5 foizini tashkil qilgan (6-jadval).

6-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Shofirkon tuman bo‘limi bo‘yicha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqida ma’lumot²⁶

Pensiya va nafaqalar turlari	Pensiya va nafaqa oluvchilar			
	2017-yil 1-dekabr holatiga		2017-yilda tayinlangan pensiya va nafaqalar	
	soni (kishi)	foizi	soni (kishi)	foizi
Pensiya va nafaqa oluvchilar soni - jami	20040	100,0	1517	100,0
Yoshga doir pensiya oluvchilar	14253	71,1	1085	71,5
Nogironlik pensiyalarini oluvchilar	3602	18,0	173	11,4
Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini oluvchilar	600	3,0	71	4,7
Jami ijtimoiy nafaqa oluvchilar	1502	7,5	188	12,4
“Harbiy xizmatchilar pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun bo‘yicha pensiya oluvchilar	83	0,4	0	0,0

²⁶ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Shofirkon tuman bo‘limi hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tahlil qilinayotgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Buxoro viloyat Shofirkon tuman bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, tumanda 2017-yil davomida jami bo'lib 1517 kishiga pensiya tayinlangan, shundan 71,5 foizini yoshga doir pensiyalar, 11,4 foizini nogironlik pensiyalari, 4,7 foizini boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oluvchilar tashkil qiladi. Pensiya jamg'armasidan ijtimoiy nafaqalar oluvchilar 188 kishini tashkil qilib, ular jami kontingentning 12,4 foizini tashkil qilgan.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tuman bo'limi tomonidan 2017-yil bo'yicha pensiyalarning turlari bo'yicha hisoblangan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jami hisoblangan pensiya va ijtimoiy nafaqalarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tumani bo'yicha – 77,7 foizini yoshga doir pensiyalar tashkil qiladi (7-jadval).


7-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tuman bo'limi tomonidan pensiyalarning turlari bo'yicha hisoblangan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori²⁷, ming so'm

Ko'rsatkichlar	2017-yil bo'yicha	
	summa, ming so'm	%
Jami hisoblangan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar	97020275967,73	100,0
Yoshga doir pensiyalar	75349062791,81	77,7
Nogironlik pensiyalari	16111379786,22	16,6
Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari	1719315946,52	1,8
Ijtimoiy nafaqalar	3840517443,18	4,0

Nogironlik bo'yicha pensiyalar jami hisoblangan pensiya summasining 16,6 foizni, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari – 1,8 foizni, ijtimoiy nafaqalar esa 4,0 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

²⁷ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tuman bo'limi hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



6-rasm. 2017-yilda Shofirkon tumani bo'yicha tayinlangan pensiya va nafaqalarning turlari bo'yicha tarkibi²⁸

Tahlil natijalari tuman Pensiya jamg'armasi tomonidan tayinlanayotgan pensiyalarning asosiy qismi yoshga doir pensiyalar ekanligi to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi. Shofirkon tumaniga Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi tomonidan moliyalashtirib berilgan mablag'larning asosiy qismi, ya'ni 99,4 foizi pensiyalarning 3 ta turini to'lashga safarbar etilmoqda.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali qo'llab-quvvatlashdan tashqari, ular uchun qator imtiyozlar ham joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, davlat pensiyasi tayinlangan I va II guruh nogironlari, yolg'iz pensionerlar, boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar, shuningdek, shaxsiy pensionerlar yer solig'i to'lashdan ozod qilinadilar. Bundan tashqari, I va II guruh nogironlari va pensionerlar qonunchilikda belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida mulk solig'i to'lashdan ozod etilganlar. Yolg'iz pensionerlar, shu jumladan nogironlar, shaxsiy pensionerlar har oyda kommunal to'lovlari bo'yicha imtiyozlar o'rniga eng kam ish haqining 50,0 foiz miqdorida kompensatsiya to'lovlarini oladilar. Ayrim toifadagi fuqarolar pensiyalariga davlat oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun eng kam ish haqining 0,5 barobaridan 3,0 barobarigacha har oylik ustamalar belgilangan.

²⁸ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Shofirkon tuman bo'limi hisobot ma'lumotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2-bob bo'yicha xulosa

Hozirgi davrda jahonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- aholining nochor toifalariga avvalgi ko'psonli, jiddiy ahamiyatga ega bo'lmagan nafaqalar to'lash o'rniga aniq manzilli yo'nalishga ega bo'lgan yagona nafaqalarni joriy qilish;
- ijtimoiy yordamga muhtoj aholi toifalariga aniqlik kiritish, ayni paytda ularning muhtojlik darajasini aniqlash;
- ijtimoiy sohaning yetakchi sohalarida (sog'liqni saqlash, ta'lim, turar joy-kommunal xo'jaligi) jamoatchilik sektorini rivojlantirish;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi harajatlarini davlat va mahalliy byudjetlar o'rtasida oqilona taqsimlash;
- ijtimoiy soha tarmoqlarida xo'jalik yuritishning xususiy shakllari va notijorat tashkilotlarini rivojlantirish;
- ijtimoiy sohani dasturiy moliyalashga o'tish, moliyaviy mablag'lardan xarajat qilishning ijtimoiy normativlarini o'rnatish va sarf-xarajatlar ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ijtimoiy himoya masalasi ustuvor vazifa sifatida alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi uchun ijtimoiy himoya masalalariga mamlakatning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda keyingi yillar davomida ham alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalarini mustahkamlash, moliyaviy yordamning jamiyat a'zolari o'rtasida odilona taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaning manzilli bo'lishiga erishish, pirovardida to'laqonli ishlash va yashash sharoitlarini yaratish asosida inson farovonligini oshirish masalalari jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

3-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISH- NING HARAKATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SHAROITDA AHOINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING MOLIYAVIIY MANBALARINI MUSTAHKAMLASH

3.1. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, avvalo, aholi turmush farovonligini oshirishdan iborat bo‘lib, bu borada hozirgi kunda qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Odamlar daromadlarini ko‘paytirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini yanada yaxshilash, aholini uy-joy bilan ta‘minlash, aholining muhtoj qatlamlarini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari shular jumlasidandir.

Bu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, oddiy odamlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalaridan qoniqishlariga erishish, aholining ta‘sirchan ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ularni, jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda olib borish belgilangan²⁹:

– aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

²⁹ 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

– pensionerlar, nogiron, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laonli hayot kechirishlarini ta‘minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davrda ham davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim, eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki odamlarning turmush tarzi, kayfiyati, amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati qanday bo‘lishi, ular qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi bilan bevosita bog‘liq.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashgani sari ijtimoiy himoyaning ham ahamiyati ortib boraveradi. Jahon mamlakatlari tajribasi ko‘rsatayaptiki, iqtisodiy muammolarni, iqtisodiy inqirozni bartaraf etish mumkin. Ammo ijtimoiy muammolarni hal etish, ijtimoiy inqiroz oqibatlarini yumshatish oson kechmaydi. U juda katta kuch, vaqt, eng muhimi, uzoqni o‘ylab oqilona siyosat yuritishni talab etadi. Ayrim mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoyasiga, ijtimoiy masalalarni hal etishga e‘tiborsiz qarash, noto‘g‘ri yondashuvlar juda katta ijtimoiy tanglik, ijtimoiy bo‘hronlarni keltirib chiqargani, ulkan yo‘qotishlarga olib kelgani ko‘pchilikka ma‘lum. Mazkur jihatlarida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ahamiyati yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga jamiyat e‘tiborini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy himoyani kafolatlash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimizni taraqqiy ettirishning milliy modeli asosini tashkil qiladigan besh tamoyilning biri ham kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat. Mazkur tamoyil asosida mustaqillik yillarida mamlakatimizda beqiyos ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, ijtimoiy soha, xususan, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasi tubdan isloh qilindi. Bu boradagi qonunchilik asoslarini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi. 1991-yildayoq O‘zbekiston Respublikasida “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”, “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”, “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”, shuningdek, turli sohalar xodimlarining ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash to‘g‘risida, yolg‘iz keksalar, nogironlar va pensionerlar-

ning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish to'g'risida, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa tayinlash to'g'risida va boshqa o'nlab qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur qonun hujjatlarining hayotga izchillik bilan tatbiq etilishi, har yili davlatimiz byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga sarflanayotgani hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish, ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda, izchil olib borilishi natijasida mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlik saqlanib, odamlarning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanib, bunyodkorlik fazilatlarini tobora oshib bormoqda. Bularning barchasi mamlakatimizni izchil rivojlantirishga mustahkam asos yaratmoqda.

Dunyo tajribasini har tomonlama chuqur o'rganib, xalqimiz mentalitetini hisobga olgan holda tanlangan yo'limizga ko'ra, bozor iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan va eng avvalo, jamiyat manfaatlariga qaratilgan bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy islohotlarda, avvalo, aholining davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand qatlami manfaatlariga yo'naltirilgan siyosat yuritish orqali iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

Buning uchun mehnatga layoqatli aholining munosib haq to'lanadigan ish topishga intilishini qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy tashabbuskorligi va tadbirkorligini rag'batlantirish zarur, deb hisoblaymiz. Avvalo, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarga, kasb tanlash, ta'lim olish va o'quv muassasalarini bitirgach, albatta, birinchi ish o'rinlariga ega bo'lishlari uchun adolatli, teng va ijtimoiy jihatdan maqbul shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Shuning bilan birga, alohida e'tibor va g'amxo'rlikka, parvarishga muhtoj qatlam — pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, yetim-yesirlar va aholining mehnat qila olmaydigan boshqa ijtimoiy guruhlarini hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishni kafolatlovchi pensiya ta'minoti va ijtimoiy nafaqalarning yanada samarali tizimini rivojlantirish zarur.

Ushbu vazifalarni hal etish iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tanlashda davlatning asosiy tartibga soluvchilik rolini

yanada mustahkamlashni talab etadi, bu esa amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ijtimoiy samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi.

Aholining manzilli ijtimoiy himoyasini ta'minlashning eng samarali shakli, bu shubhasiz, ularni ish, barqaror daromad manbai bilan ta'minlashdir. Shu tamoyildan kelib chiqib, mamlakatimizda ish o'rinlari tashkil etish va mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli choralar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmog'i lozim.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga aylantirilganligi alohida e'tiborga loyiq.

Ushbu hujjat bandlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, davlat va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, aholi, ayniqsa yoshlar bandligini ta'minlashda samarador chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordamni o'z vaqtida to'lanishi monitoringini amalga oshirish va boshqalardan iborat asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari yuqoridagi farmon bilan belgilab qo'yildi.

Ushbu farmonda aholi bandligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan quyidagi choralar ko'zda tutilgan:

– 2018-yil 1-yanvardan boshlab oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining birinchi marotaba ishga joylashgan bitiruvchilarining birinchi yilda ishga joylashganlarining ish haqidan olinadigan daromadlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovning o'rnatilgan stavkasini 50 foizga, ularning ikkinchi va uchinchi yil davridagi mehnat faoliyati bo'yicha 25 foizga kamaytirish;

– 2018-yil 1-yanvardan boshlab nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashtirish sohasida, ular tomonidan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish faoliyati amalga oshiriladigan hollarda esa belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida, pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqini berish.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, asosiy vazifasi vaqtinchalik band bo‘lmagan aholini yirik investitsiya loyihalarida, yo‘l va uy-joy kommunal infrastrukturasining qurilishida, ta‘mirlash va rekonstruktsiya qilishda, shahar va tumanlarni obodonlashtirishda, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtiroklarini moliyalashtirishdan iborat byudjetdan tashqari jamoat ishlari jamg‘armasi tashkil etilishi muhim yangilik hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan farmonining ijrosini ta‘minlash maqsadida 2017-yilning 23-mayida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning hududiy va tasarrufiy tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi har oyda vazirlikning rasmiy saytida va markaziy ommaviy axborot vositalarida mehnat bozoridagi vaziyat va bandlik holati to‘g‘risida ma‘lumotlarni, shu jumladan ish qidirib mehnat organlariga murojaat qilgan hamda ishsizlik bo‘yicha nafaqa olayotgan fuqarolar soni, yaratilgan ish o‘rinlari, ro‘yxatga olingan bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari va ish beruvchilar, investorlar va aholi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni chop etib boradi.

Alohida qayd etish lozimki, qarorda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga, respublikaning mehnat resurslari haddan tashqari ortiqcha bo‘lgan tuman va shaharlarini aniqlagan holda, ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish yuklatildi. Shuningdek, o‘z navbatida O‘zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari investitsiya loyihalari bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarni shakllantirish va tasdiqlashda ushbu mehnat resurslari haddan tashqari ortiqcha bo‘lgan tuman va shaharlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga ustuvor ravishda e‘tibor qaratishlari lozim.

Shu munosabat bilan, qaror bilan mehnat resurslari haddan tashqari ortiqcha bo‘lgan tuman va shaharlarda, o‘zlarining asosiy ta‘lim berishdan bo‘sh vaqtlarida, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiq mehnat bozorida talabga ega bo‘lgan mutaxassislik va yo‘nalishlar asosida band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshiradigan tayanch kollejlarning ro‘yxati tasdiqlandi.

Shuningdek, qaror bilan O‘zbekiston bandlik va mehnat munosabatlari sohasida me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni hamda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish mexanizmlarini, yangi interaktiv xizmatlarni joriy etish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va shu kabi boshqa choralar ko‘zda tutilgan mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorning amalga oshirilishi natijasida:

birinchidan, mehnat organlarining zamonaviy talablarga javob beradigan, jumladan ustuvor vazifalarni, jumladan mehnat bozori infrastrukturasi rivojlantirish, ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantirish, birinchi marotaba mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni va aholining ijtimoiy zaif toifalarini ishga joylashtirish kabi muhim yo‘nalishlardagi vazifalarni izchil va samarali ravishda bajarishni ta‘minlaydigan tashkiliy tuzilmasini yaratish;

ikkinchidan, mehnat organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan barcha davlat xizmatlarini to‘liq hajmda qayta ko‘rib chiqish (reinjiniring), mehnatga haq

to'lashning zamonaviy rag'batlantiruvchi uslublari va samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (KPI)ni joriy etgan holda ish tashkil etishning progressiv shakllarini tatbiq etish orqali bandlik sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini tubdan oshirish;

uchinchidan, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari jamoat ishlari jamg'armasi hisobidan mehnat bozorini izchil va barqaror rivojlantirish, aholi bandligi darajasini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni moliyaviy ta'minlashni kuchaytirish;

to'rtinchidan, kam ta'minlangan oilalar a'zolari va aholining boshqa ijtimoiy zaif toifalarini, ularga mikro kreditlar berish va qayta o'qitish xizmatlarini taqdim etish orqali, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlikka jalb etish, shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish yo'li bilan oilalarni kam ta'minlanganlikdan chiqarish bo'yicha individual dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga doir zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunga kelib, mehnatga layoqatli aholi ko'p bo'lgan hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari tashkil etishni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan maxsus mintaqaviy jamg'armalarni tuzishni rag'batlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni tijorat banklarining investitsiyalari hisobiga modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash hamda barqaror ish o'rinlariga ega bo'lgan yangi korxonalar tashkil etish va keyinchalik ularni asosan mazkur korxonalar xodimlariga sotish amaliyotini yanada rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

O'rta maxsus ta'lim tizimida korxona va tashkilotlar ehtiyojlaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash amaliyotini rivojlantirish ham bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, ham sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Shuning bilan birga, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o'zlari mustaqil ravishda ish o'rniga ega bo'lishlarini

ta'minlash, yakka tartibdagi mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun ularga imtiyozli mikrokreditlar berish, ular tashkil etayotgan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda mavjud to'lovlardan ozod etish yo'li bilan ularning bandligini ta'minlashni rag'batlantirish g'oyalari ilgari surilmoqda.

O'tgan davr mobaynida yurtimizda ijtimoiy muhofaza masalalariga oid 100 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur hujjatlardagi ijtimoiy himoya va aholini manzilli qo'llab-quvvatlashning muhim tamoyillari va kafolatlarini yagona qonunda aks ettirish, mazkur jarayonda aholi ijtimoiy himoyasi bo'yicha rivojlangan davlatlarning qonunchilik tajribasi, xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda ehtiyojmand oilalar, nogironlar, ayollar va bolalar, pensionerlar, yolg'iz keksalar, ishsiz fuqarolar ijtimoiy himoya qilinayotgan aholi toifalariga kiradi.

Ijtimoiy himoyalash moddiy qo'llab-quvvatlash (ijtimoiy nafaqa, boshqa to'lovlar), tibbiy, kasbiy, ijtimoiy reabilitatsiya qilish, o'qitish, kasbga tayyorlash va malaka oshirish, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy infrastruktura obyektlariga to'siqlarsiz kirish, axborot tizimidan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish kabi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda me'yoriy-huquqiy asosni yanada takomillashtirish, jahon standartlariga moslashtirish muhim masala hisoblanadi.

Bu jarayonda viloyat, tuman (shahar) moliya bo'limlari hamda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda ijtimoiy adolat tamoyillariga, qarorlar qabul qilishda oshkoralikka qay darajada rioya etayotganiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha yaratilgan tizimning ishlash mexanizmi o'rganilib, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy asosini yanada takomillashtirish bo'yicha muayyan masalalar aniqlangan.

3.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini mustahkamlash

Aholining ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini faqat davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga samarali ta'minlab bo'lmaydi, albatta. Demak, kam ta'minlangan oilalar a'zolariga o'z ishini ochishi, mustaqil biznesini yo'lga qo'yishi uchun ularga beg'araz ssuda va grant berish institutini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Agar ular o'z ishini yo'lga qo'yib, barqaror daromad manbaiga ega bo'lsa, nafaqat ularning ijtimoiy himoyasi uchun byudjetdan pul ajratishga hojat qolmaydi, balki ularning o'zlari soliq to'lovchilarga aylanib, davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbaiga aylanadi.

Bugungi kun voqeligi faqat ayrim fuqaro guruhlariga nafaqalar berishni nazarda tutuvchi passiv ijtimoiy siyosat mexanizmlarining aholini ijtimoiy muhofaza qilish uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlarni ochish hisobidan aholi bandligini yanada oshirish, aholining muhtoj qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan aktiv ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida o'z aksini topgan. Bu chora-tadbirlar, jumladan, quyidagilardan iborat³⁰:

- ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan 34 ta tumanda 4 300 000,0 mln.so'm miqdoridagi korxonalar mablag'lari va tijorat banklari kreditlarini jalb qilgan holda 46,8 mingta ish o'zni tashkil etish yo'li bilan qishloq joylarda barqaror ish o'rinlari tashkil etish hisobiga aholi bandligini oshirish;

- aholi bandligini ta'minlash maqsadida 10 ming nafar ta'lim muassasalari bitiruvchisiga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun tijorat banklari kreditlari hisobidan 60 000,0 mln.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish orqali bandlikni va oila daromadlarini oshirish;

³⁰ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova.

– respublika hududlarida aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan 400 000,0 mln.so'm hajmida bank kreditlarini ajratish orqali fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish, qoramol, qo'y, echki, quyon boqish va go'sht etishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, shuningdek, urug' va ko'chatlar uchun mikrokreditlar ajratish hajmini yanada oshirish, shu yo'l bilan aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligini oshirish, sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish;

– Mehnat vazirligi tizimida Koreya Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar hamda xalqaro moliya institutlarining 8,5 mln.doll. (o'rtacha 1 ta markazni tashkil etish uchun – 3 000,0 mln.doll.) grant mablag'lari va imtiyozli kreditlarini, shuningdek, Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda viloyat markazlarida ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish markazlarini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlar tizimida keksa avlod vakillari, pensionerlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ularning turmush sharoiti va sifatini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Harakatlar strategiyasida ham "nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ularning madaniy hordiq chiqarishiga va sog'liqlarini mustahkamlashga, keksalarning maishiy holatlarini yaxshilash, ularning muammolarini o'rganish, mahallalarda istiqomat qilayotgan ko'makka muhtoj keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan bir qatorda, "Muruvvat", "Sahovat" uylarida yashovchilar holidan muntazam xabar olish, bu ishlarga yoshlarni keng jalb etish maqsadida "Nuroniylar e'zozimizda" patronaj yoshlar harakatini tashkil etishga, jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali keksa avlod vakillarini ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan" bir qator chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish uchun mas'ul tashkilotlar, bu ishlarni bajarish uchun zarur mablag'lar va ularning manbalari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va dinamik ravishda rivojlantirishga tayangan kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholi farovonligi jiddiy ravishda o'sdi, odamlarning turmush sifati yaxshilandi va bu o'z navbatida o'rtacha umr ko'rish davomiyligining va aholi strukturasida keksa yoshdagi odamlar ulushining oshishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridanoq yolg'iz pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 27-maydagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi PF-212-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'z aksini topdi.

So'nggi yillar mobaynida respublikada yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, faqatgina 2010-2015-yillar mobaynida keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Saxovat va Muruvvat internat uylari moddiy-texnika bazalari, 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensioner, nogironlarning turar joy sharoitlari yaxshilandi, 5,4 ming odam reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sog'liqlarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 milliard so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan o'rganish ishlari "Nuroniylar" jamg'armasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning manzilliligini ta'minlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolg'iz keksalarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini ko'tarishni, shuningdek joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish imkonlarini ta'minlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Keksalarni qo‘llab-quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirish uchun qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son qarorida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- oqsoqollar, keksalar va faxriylarni yoshlarni xalqimizning ko‘p asrlik an‘analariga, Vatanga muhabbat, keksalarni e‘zozlash ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatga jalb etish;

- joylarda keksalar turmush sifatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy- siyosiy hayotidagi ishtirokini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga ko‘mak berish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda oilalarda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, yoshi keksa faollarni bolasi bor muammoli oilalarga biriktirish, shuningdek yolg‘iz va muhtoj keksalarga ijtimoiy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish;

- “Nuroniylar” jamg‘armasi markaziy apparatining, uning viloyatlardagi va tumanlardagi bo‘linmalariga, “Nuroniylar” jamg‘armasi xodim-pensionerlariga davlat byudjetidan pensiyalarini to‘la hajmda to‘lash orqali byudjetdan moliyalanishini ta‘minlash;

- har yili “Mahalla” xayriya fondiga Navro‘z va Mustaqillik umummilliy bayramlariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan hasharlardan tushadigan mablag‘larning 10 foizini “Nuroniylar” jamg‘armasiga o‘tkazish;

– “Nuroniylar maskani” komplekslarini yaratish va ularda o‘quv zallari, hordiq xonalari, davolash fizkulturasi, shuningdek ovqatlanish xonalari va tibbiy kabinetlarni tashkillashtirish;

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik tartibida fuqarolar yig‘ini (ovullar, qishloqlar, mahallalar) raisining o‘rinbosari – keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchi lavozimini kiritish;

– “Nuroniylar” jamg‘armasining barcha bo‘linmalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zarur shart-sharoitlarni yaratish, mebel, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan ta‘minlash;

– kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash uchun 2,8 million keksa yoshdagi fuqarolarning barchasi ixtisoslashtirilgan tibbiy brigadalar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishini ta‘minlash;

– biriktirilgan patronaj hamshiralari tomonidan salomatliklari ustidan doimiy nazorat orqali keksa yoshdagi fuqarolar orasida kasalliklar profilaktikasi choralarini kengaytirish, 15,5 ming yolg‘iz keksalarning turmush sifatini va turmush darajasini ularga shaxsiy ijtimoiy xodimlarni biriktirish orqali oshirish;

– keksa yoshdagi shaxslarni ularga to‘lovsiz asosda davolash va sog‘lomlashtirish. Shu munosabat bilan respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlariga 20 ming va viloyatlardagi tibbiyot muassasalariga 215 mingdan ziyod, jami 178,9 milliard so‘m miqdoridagi orderlar ajratish.

Bundan tashqari, urush va mehnat faxriylari, yolg‘iz pensionerlar va nogironlar salomatligini har yil bu kontingentga kirgan 34 ming odamni 18 milliard so‘m miqdorida sanatoriya-davolash muassasalarida bepul sog‘lomlashtirish yo‘li bilan salomatliklarini yaxshilash ko‘zda tutilgan.

Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida keksalar, nogironlar hamda urush va mehnat faxriylari uchun 3 ta yangi sanatoriy qurish va ularni jihozlash yo‘li bilan qo‘shimcha 50 mingdan ziyod pensioner va nogironlarning sanatoriya muassasalarida bepul sog‘lomlashtirilishini tashkillashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu maqsadni amalga oshirish ishlariga davlat byudjeti hisobidan 13,5 milliard so‘m ajratish mo‘ljallangan.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush sifatini, har yil bu kontingentga kirgan 10 ming odamni jami 2,5 milliard so‘m miqdoridagi zarur protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash hisobidan oshirish ham qaror va farmonda nazarda tutiladi.

O‘zgaralar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalar va nogironlar turmush darajasi va sifatini har yil ushbu kontingentga kirgan 4 ming odamni umumiy miqdori 3,2 milliard so‘m bo‘lgan asosiy oziq-ovqatlar, gigiena vositalari bilan ta‘minlash yo‘li bilan oshirish, 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriylarda har yili sog‘lomlashtirish kursidan o‘tish o‘rniga yo‘llanmaning o‘rtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqini berish, yolg‘iz va kam ta‘minlangan keksa fuqarolarni umumiy miqdori 6,4 milliard so‘m hajmidagi qishki kiyim komplekti va poyafzal, shuningdek qishga g‘amlash uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan har yili ta‘minlash, Andijon, Buxoro, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ochiq yurakda jarrohlik operatsiyalarini o‘tkazish uchun umumiy summasi 9,7 milliard so‘m bo‘lgan hududlararo kardioxirurgik markazlar yaratish, tuman (shahar)lardagi barcha tibbiyot birlashmalari va muassasalarini, shuningdek barcha viloyatlardagi onkologiya dispanserlarini umumiy miqdori 108,7 million AQSh dollariga teng bo‘lgan tegishli zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash, keksalar va nogironlarning 23 ta Saxovat va Muruvvat uy-internatlari moddiy-texnika bazasini umumiy miqdori 207 milliard so‘mga teng hajmda mustahkamlash kabi chora-tadbirlar ham keksa avlod vakillari, nuroniylar va o‘zgaralar parvarishiga muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan.

Dasturni moliyalashtirishga 688,2 milliard so‘m yo‘naltiriladi, shuningdek, xalqaro moliyaviy tuzilmalarning 108,7 million AQSh dollari hajmidagi kredit va grant mablag‘larini jalb etish ko‘zda tutilgan³¹.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 10-modda.

Ushbu chora va tadbirlarning amalga oshirilishi keksalar va faxriylarni yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatga jalb etishga, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, keksa yoshdagi odamlar, imkoniyati cheklangan shaxslar va yolg'iz keksalarning turmush sharoitlari va sifatini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga, manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ularga ko'rsatiladigan yordam turlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek 2017-yil 14-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3135-son qarori³² bilan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondi tashkil etildi.

Fondning asosiy mablag'lari jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijiy fuqarolar va tashkilotlarning xayriya yordami hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlari salomatligini muhofaza qilish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirishni ta'minlash, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoki xavfli guruhga kiradigan bolalar, "Mehribonlik", "Muruvvat", "Saxovat" uylari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga yordam berishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash Fondning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Fond O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, xorijiy fuqarolar va tashkilotlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayriya mablag'larini jalb etish va jamlash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi hamda ulardan Fond xayriya dasturlarini amalga oshirish uchun maqsadli foydalanadi.

Fondga istisno tariqasida O'zbekiston Respublikasi hududida Fond xayriya dasturlari doirasida hisob-kitoblar va to'lovlarni xorijiy valyutada amalga oshirish, Fond xayriya dasturlarini amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy fuqarolar —

³² <http://press-service.uz/uz/lists/view/794>

mutaxassislarni mehmonxona va boshqa joylarda joylashtirish xizmatlari uchun to'lovlarni milliy valyutada to'lashga ruxsat etildi.

Fond soliqlarning barcha turlari va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan (Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar bundan mustasno) va Fond tomonidan chetdan keltiriladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'implari bundan mustasno) ozod qilindi.

Respublikadagi qator vazirlik va idora hamda tashkilotlarga Fond xayriya dasturlari amalga oshirilishini ta'minlashda Fond bilan faol hamkorlik kilish tavsiya etildi.

Shu kabi davlat ijtimoiy dasturlarining amalga oshirilishi natijasida o'tgan davrda aholi salomatligi sezilarli darajada mustahkamlandi, onalar o'limi — 3,2, bolalar o'limi — 3,4 barobar kamaydi, o'rtacha umr ko'rish darajasi 66 yoshdan 74 yoshgacha, ayollar o'rtasida esa 76 yoshgacha uzaydi³³.

3-bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston Respublikasi uchun ijtimoiy himoya masalalariga mamlakatning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda keyingi yillar davomida ham alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalarini mustahkamlash, moliyaviy yordamning jamiyat a'zolari o'rtasida odilona taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaning manzilli bo'lishiga erishish, pirovardida to'laqonli ishlash va yashash sharoitlarini yaratish asosida inson farovonligini oshirish masalalari jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksa-qariyalar, nogironlar, vaqtincha ishsizlar va shunga o'xshash yordamga ehtiyojmand aholi vakillariga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan izohlanadi.

³³ <http://press-service.uz/uz/lists/view/794>

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatdagi ijtimoiy islohotlar asosini tashkil qiluvchi aholining muayyan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimiga o‘tilishi iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi.

Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish – bu kompleks tarzda amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi bo‘lib, u turmush darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, kam ta‘minlanganlik muammosini sivilizatsiyalashgan holda bartaraf etish choralari ko‘rish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylash va ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, kasanachilik va yakka tartibdagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish uchun imtiyozli kreditlar berish kabilar orqali aholi bandligini oshirish, haqiqatda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirib borish va ularni manzilli tarzda ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslarini va moliyaviy manbalarini mustahkamlash, turmush darajasini oshirish masalalariga nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora ko‘proq jalb qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Mehnatga layoqatli aholi ko‘p bo‘lgan hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan maxsus mintaqaviy jamg‘armalarni tuzishni rag‘batlantirish, zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarni tijorat banklarining investitsiyalari hisobiga modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash hamda barqaror ish o‘rinlariga ega bo‘lgan yangi korxonalar tashkil etish va keyinchalik ularni asosan mazkur korxonalar xodimlariga sotish amaliyotini yanada rivojlantirish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o‘zlari mustaqil ravishda ish o‘rniga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, yakka tartibdagi mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun ularga imtiyozli mikrokreditlar berish, ular tashkil etayotgan tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishda mavjud to‘lovlardan ozod etish yo‘li bilan ularning bandligini ta‘minlash zarurligi ham ushbu bob yuzasidan shakllangan xulosalarimizning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning moliyaviy manbalari” mavzusini o‘rganish davomida biz tomonimizdan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tarkibi, tuzilishi, moliyaviy asoslari tadqiq qilindi. Ijtimoiy himoya xarajatlarini davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlash, Pensiya jamg‘armasidan aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari o‘rganildi. Tadqiqotlarimiz va tahlillarimiz asosida shakllangan xulosalarimiz quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda yashash joyidan qat’iy nazar, barcha aholi qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda teng shart-sharoitlarni yaratish; ijtimoiy sohalar xodimlari mehnatini har tomonlama rag‘batlantirish; aholini ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli bo‘lishini ta‘minlash; ijtimoiy himoyaning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash; aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotning barqaror o‘shishini rag‘batlantirish zarur;

- ilg‘or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha “iste‘mol savatchasi”ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq;

- davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari turlarini ko‘paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish zarur;

- “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vaqti keldi, deb hisoblaymiz;

- og‘ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yaxshilash zarur;

- O‘zbekiston Respublikasi uchun ijtimoiy himoya masalalariga mamlakatning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda keyingi yillar davomida ham alohida ahamiyat berish kerak bo‘ladi.

Olib borilgan izlanishlar asosida hamda xulosalarimizdan kelib chiqib, quyidagi mazmundagi takliflar shakllantirildi:

1. Bundan keyin asosiy e'tiborni davlat tomonidan aktiv ijtimoiy siyosatni olib borishga qaratish lozim. Mehnatga layoqatli aholi ko'p bo'lgan hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari tashkil etishni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan maxsus mintaqaviy jamg'armalarni tuzishni rag'batlantirish, zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni tijorat banklarining investitsiyalari hisobiga modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash hamda barqaror ish o'rinlariga ega bo'lgan yangi korxonalar tashkil etish va keyinchalik ularni asosan mazkur korxonalar xodimlariga sotish amaliyotini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

2. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o'zlari mustaqil ravishda ish o'rniga ega bo'lishlarini ta'minlash, yakka tartibdagi mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun ularga imtiyozli mikrokreditlar berish, ular tashkil etayotgan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda mavjud to'lovlardan ozod etish yo'li bilan ularning bandligini ta'minlash zarur.

3. Aholining nochor toifalariga avvalgi ko'psonli, jiddiy ahamiyatga ega bo'lmagan nafaqalar to'lash o'rniga aniq manzilli yo'nalishga ega bo'lgan yagona nafaqalarni joriy qilish lozim. Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarining barqarorlashuvi bilan kam ta'minlangan oilalarga va bolali onalarga beriladigan nafaqa miqdorini ham oshirib borish lozim, bu ayniqsa, "iste'mol savatchasi"ning qonuniy asoslari shakllanganidan keyin dolzarb bo'lib qoladi.

4. 14 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish ko'rinishida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun byudjet mablag'larini ko'paytirish, yordam pullari oluvchi kontingentni mos ravishda 1,5-2 barobar kengaytirish lozim.

5. Uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida 10-11-sinflarning ochilishi va ularda o'qiydigan bolalar asosan 17-18 yoshda bo'lishlarini, shuningdek, hali biron joyda ishlash uchun na ma'lumoti, na biron kasb-hunari bo'lmasligini inobatga olib, 14 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga

nafaqa berishda bolalar sonini qayta ko'rib chiqish lozim (masalan, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni ham kiritish).

6. Har bir sohada yangilik bulgani yaxshi, bu mamlakatning rivojlanishiga olib keladi. Lekin yaratilayotgan har bir yangilik xalqqa foydali bo'lishi kerak. Xozirgi kunda sog'lig'i tufayli pensiya yoshiga yetishlik yoki pensionerlarning ko'pi 3-4 yoki 5 yil pensiya olib umri tugab olamdan utish holatlari tez-tez uchraydi. Pensiya islohotlari Konsepsiyasi loyihasiga muvofiq pensiyaga chiqish yoshi ko'tarilsa, ayniqsa ayollarga pensiyaga yetish qiyin bo'lib qolarkan, umr bo'yi mehnat qilib, qarigan chog'ida oilasi davrasida bo'lishi kam bo'larkan. mamlakatimizda ayol oilada alohida o'rin tutadi. Shu sababli ayollar pensiya yoshini 54 (55) yoshda qoldirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Konsepsiya loyihasida misol keltirilgan Yevropa mamlakatlari bilan bizning yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, oilaviy majburiyatlarimiz va demografik holatimiz anchagina farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish – bu kompleks tarzda amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi bo'lib, u turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylash va ish o'rinlari bilan ta'minlash, yakka tartibdagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga o'z biznesini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar berish kabilar orqali aholi bandligini oshirish, haqiqatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirib borish va ularni manzilli tarzda ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslarini va moliyaviy manbalarini mustahkamlash, jamiyatda davlat bilan fuqarolar o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o'rnatish, turmush darajasini oshirish masalalariga nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora ko'proq jalb qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 17-son, 173-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2004. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 33-son, 439-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrda "Mehnat faoliyatini olib borayotgan pensionerlarning alohida toifalariga qulay sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5291-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2017 y., 06/18/5291/0488-son.

7. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-son Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda
“Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada
takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son
qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 10-
modda.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevralda
“Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir
qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli Qarori. O‘zbekiston
Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 73-modda.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martda
“Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi PQ-2826-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari
to‘plami, 2017 y., 11-son, 154-modda.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda
“Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-
2847-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 13-
son, 201-modda.

17. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

18. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 2-ilova.

19. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli Farmoniga Ilova.

20. “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-son qarori bilan tasdiqlangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

21. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston. NMIU. 2015.

22. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. T.: O‘zbekiston. 2016. 72 b.

23. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

24. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezedentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi // 8.12.2016.

25. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

26. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 y. – 64 bet.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 y. – 80 bet.

3. Darslik va o‘quv adabiyotlari

28. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma‘naviyat”, 2017 y. – 416 bet.

29. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Abdurahmonov Q.X. tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013.

30. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta‘minoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2015. – 248 b.

31. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

32. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 bet.

33. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Risola / Bekmurodov M. va boshqalar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 y. – 108 bet.

34. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008.
35. Mamatov B. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamolfayz media”, 2017 y. – 280 bet.
36. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. 224 b.
37. O'zbekiston: Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. Amaliy qo'llanma. 2011.
38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. – T.: “Ma'naviyat”, 2017 y. – 184 bet.
39. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
40. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
41. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Public budgeting systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. – P. 667.
42. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / TMI – T.: “Noshir”, 2012. – 712 b.
43. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. –T.: “Adolat”. 2009. - 172 b.
44. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник / - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2009. - 576 с.
45. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник - 2-е изд. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2010. - 396 с.
46. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. – 396 с.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

47. Abdullayev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish muammolari. "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.:Universitet. 2014.

48. Ametova F.R., Boyev B.J. Pensiya tizimi taraqqiyotida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ahamiyati. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

49. Beknazarov Z.E. Pensiya ta'minotida xorijiy tajriba va xususiyatlar. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

50. Davronov SH.Z. Davlat pensiya ta'minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda va yanada takomillashtirilmoqda. "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: Universitet. 2014.

51. Kasimova G.A. Pensiya ta'minotida elektron mehnat daftarlarini joriy qilish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

52. Mamatov B., Xujamkulov D. Pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2016 yil.

53. Nurmuxamedova B.I. Pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirishning zarurligi va yo'nalishlari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislari to'plami. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. 25-bet

54. O'zbekiston moliyasi / Финансы Узбекистана. – 2017. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

55. O'zbekiston raqamlarda / Узбекистан в цифрах. – 2017. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

56. Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.

57. Tursunov J.P. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017 yil.

58. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to'plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. 10-bet.

59. Zayniddinov F.Sh. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning o'рни va ahamiyati. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.

60. Лебедева Л.Ф. Федеральная программа пенсионного обеспечения в США // «Россия и Америка в XXI веке», №2, 2014

61. Маматов Б. Нурмухамедова Б., Бекназаров З. Опыт пенсионного обеспечения развитых и развивающихся стран. "Вести современной науки". Научно-теоретический журнал. Волгоград, изд. "Сфера" 2016. – 12. 60-67-стр.

62. Федотов А. И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. Труды ИСА РАН 2006. 309-стр.

63. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за январь-июнь 2015 года. Т.: Center for Economic Research, 2015 год. 24-с.; Тенденции социально-экономического развития Узбекистана (2005-2014гг.) / под общей редакцией д.э.н. А.М.Садыкова. Т.: IFMR, 2015. 97-с.

64. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to'plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 432 b.

65. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Buxoro viloyat Shofirkon tuman bo'limi hisobot ma'lumotlari.

5. Internet saytlari

66. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

67. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

68. www.lex.uz (O‘R qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi);
69. www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi)
70. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi)
71. www.pfru.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi)
72. www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i);
73. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi);
74. www.interfinance.uz (Toshkent moliya institutining “xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali)